
TUMAN KENGASHI DEPUTATLARI VA “MAHALLA YETTILIGI”NING O‘ZARO HAMKORLIGI YO‘LGA QO‘YILDI



O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 4-apreldagi “Mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va senatorlarning “Mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-706-IV-sonli qaroriga asosan, mahallalardagi muammolarni hal etishda xalq deputatlari Qo‘shtepa tuman Kengashi deputatlari va “Mahalla yettiligi”ning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadida, tuman Kengashining tegishli qarori bilan tuman Kengashi deputatlari tegishli saylov okruglaridagi mahallalarga birlashtirilgan.



Mazkur qarorga asosan, tuman kengashi deputatlari Sh.Sharapov hamda A.Nabiyevlar tomonidan o‘zlari birlashtirilgan tegishli saylov okruglaridagi mahallalarda “Mahalla yettiligi” vakillari ishtirokida amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi vazifalar muhokamasi yuzasidan uchrashuvlar o‘tkazildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-05-07 17:18:21